



THE LEADERSHIP ROLE OF WOMEN IN THE GULF ARAB STATES IN INTERNATIONAL RELATIONS

Mokhidil Nizamova

supporting doctoral student

University of World Economy and Diplomacy

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: nizamova@uwed.uz

ABOUT ARTICLE

Key words: Women's leadership, International relations, Gulf Arab states, gender equality, political reforms.

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: This scientific article analyzes the leadership role and influence of women in international relations in the Gulf Arab states. It examines the gender equality reforms in the region, the political and diplomatic activity of women, as well as the existing barriers and prospects. This work is focused on studying the position of female leaders in the region from the perspective of international relations.

KO'RFAZ ARAB DAVLATLARI AYOLLARINING XALQARO MUNOSABATLARDAGI LIDERLIK ROLI

Mohidil Nizamova

tayanch doktorant

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: nizamova@uwed.uz

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ayollar liderligi, xalqaro munosabatlar, Ko'rfa z arab davlatlari, gender tengligi, siyosiy islohotlar.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola Ko'rfa z arab davlatlarida ayollarning xalqaro munosabatlardagi liderlik roli va ta'sirchanligini tahlil qiladi. Unda mintaqadagi gender tengligi islohotlari, mavzuga oid nazariyalar, ayollarning siyosiy va diplomatik faolligi, shuningdek, mavjud to'siqlar va istiqbollar ko'rib chiqiladi. Ushbu ish xalqaro munosabatlar nuqtayi nazaridan ayol yetakchilarning mintaqadagi o'mini o'rganishga qaratilgandir.

ЛИДИРУЮЩАЯ РОЛЬ ЖЕНЩИН В АРАБСКИХ ГОСУДАРСТВАХ ПЕРСИДСКОГО ЗАЛИВА В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Мохидил Низамова

поддержка докторанта

Университет мировой экономики и дипломатии

Ташкент, Узбекистан

E-mail: nizamova@uwed.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Женское лидерство, Международные отношения, Арабские государства Персидского залива, гендерное равенство, политические реформы.

Аннотация: В данной научной статье анализируется лидерская роль и влияние женщин в международных отношениях в странах Персидского залива. В ней рассматриваются реформы гендерного равенства в регионе, политическая и дипломатическая активность женщин, а также существующие барьеры и перспективы. Данная работа посвящена изучению положения женщин-лидеров в регионе с точки зрения международных отношений.

KIRISH

XXI asr global siyosatida gender tengligi va ayollarning xalqaro munosabatlardagi roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tashkilotlar, hukumatlar va nohukumat tashkilotlar ayollar yetakchilagini rag‘batlantirish va ularning siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faol ilgari surmoqda. Ayniqsa, Ko‘rfaz arab davlatlari kabi an’anaviy patriarchal tuzum hukmron bo‘lgan mintaqalarda ayollarning siyosiy va diplomatik faolligi o‘tgan asrlarga nisbatan ancha ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Biroq bu o‘zgarishlar turli omillar, jumladan, siyosiy, iqtisodiy manfaatlar va madaniy omillar bilan bog‘liq holda kechmoqda.

Ko‘rfaz arab davlatlari - Saudiya Arabistonni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Qatar, Quvayt, Bahrayn va Ummon - arab dunyosining eng muhim geosiyosiy markazlaridan biri bo‘lib, ularning xalqaro maydondagi pozitsiyasi energetika, iqtisodiy rivojlanish va diplomatik aloqalar bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. An’anaviy jamiyat tuzilmalari va shariat qonunlariga asoslangan boshqaruv tizimi uzoq vaqt davomida ayollarning siyosiy hayotga jalb qilinishiga to‘sinqilik qilgan edi. Biroq, so‘nggi o‘n yilliklarda ushbu davlatlarda ayollarning yetakchilik salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirila boshladi. Jumladan, Saudiya Arabistonida ayollarga haydovchilik huquqining berilishi, BAAda ayollarning parlament va hukumatda yuqori lavozimlarni egallashi, Qatar va Quvaytda gender tengligi bo‘yicha ilg‘or tashabbuslarning ilgari surilishi shular jumlasidandir.

Ushbu ilmiy maqolada Ko‘rfaz arab davlatlarida ayollarning xalqaro munosabatlardagi liderlik roli va ta’sirchanligini o‘rganish, bu jarayonning rivojlanish omillari, mavjud to‘siqlar va istiqbollarni tahlil qilishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot gender va xalqaro munosabatlar nuqtayi nazaridan Ko‘rfaz arab davlatlaridagi ayollar liderligining xususiyatlari ni yoritib berishga xizmat qiladi. Mavzu doirasida Ko‘rfaz davlatlarida olib borilayotgan siyosiy islohotlar, ayollar faolligini oshirishga qaratilgan dasturlar va ularning xalqaro siyosatga ta’siri ham keng tahlil etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko‘rfaz arab davlatlarida ayollarning xalqaro munosabatlardagi yetakchilik roli ko‘plab muhim jihatlar bilan bog‘liqdir. Avvalo, ushbu mintaqadagi ayollar diplomat, siyosatchi, xalqaro tashkilotlar vakili sifatida faoliyat yuritayotganliklari xalqaro maydonda gender balansi o‘zgarayotganining dalilidir. Masalan, BAAning tashqi ishlar bo‘yicha davlat vaziri lavozimida faoliyat yuritgan ayol diplomatlar, Qatar va Bahraynda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarda yuqori lavozimlarni egallagan ayollar mintaqaning gender masalalariga bo‘lgan yondashuvini qayta shakllantirmoqdadir.

Biroq, ayollarning xalqaro munosabatlardagi faolligini oshirish jarayoni hali ham bir qator muammolar va to‘siqlarga duch kelmoqda. Birinchidan, patriarchal madaniyat va diniy an’analari hali ham ko‘plab ayollar uchun cheklov omili bo‘lib qolmoqda. Ikkinchidan, jamiyatdagi gender stereotiplari va ijtimoiy norma va qadriyatlar ayollarni yetakchilik lavozimlariga intilishlarida qiyinchilik tug‘diradi. Uchinchidan, mintaqaviy va xalqaro siyosiy barqarorlik omillari ham ayollarning siyosiy faolligiga bevosita ta’sir qiladi.

Xalqaro munosabatlarda yetakchilik masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ayollar yetakchiligini tahlil qilishda quyidagi nazariy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Feministik xalqaro munosabatlar nazariyası – bu yondashuv ayollar va erkaklar o‘rtasidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tafovutlarni tahlil qiladi hamda gender tengligini xalqaro tizimda barqarorlikka erishish vositasi sifatida ko‘radi.

Konstruktivistik yondashuv – ushbu nazariya ijtimoiy me’yorlar, madaniyat va qadriyatarning xalqaro munosabatlarga ta’sirini o‘rganadi. Ko‘rfaz arab davlatlarida ayollarning rolini tahlil qilishda bu yondashuv muhim, chunki u ushbu jamiyatlarda mavjud gender qoidalarining ayollar yetakchiligidagi ta’sirini tushuntiradi.

Realistik yondashuv – bu nazariya kuch va manfaatlarni asosiy omil sifatida ko‘rib, ayollarning yetakchilik imkoniyatlariga qanday ta’sir qilayotganini tahlil qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Ko‘rfaz arab davlatlarida ayollar liderligining rivojlanish dinamikasi. So‘nggi o‘n yilliklarda Ko‘rfaz arab davlatlarida ayollarning xalqaro munosabatlardagi yetakchilik roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Biroq, bu jarayon har bir mamlakatda turlicha kechmoqda. Birlashgan Arab Amirliklari va Qatar singari davlatlar ayollarni diplomatiya va xalqaro siyosiy jarayonlarga jalb qilishda yetakchilik qilayotgan bo‘lsa, Saudiya Arabiston, Bahrayn, Quvayt va Ummon kabi davlatlar ushbu yo‘nalishda asta-sekin rivojlanmoqda.

BAA va Qatarning muvaffaqiyati asosan davlat tomonidan olib borilgan islohotlarga, xalqaro imijni yaxshilashga qaratilgan strategiyalarga va ayollarni iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlarga jalb qilish bo‘yicha qat’iy siyosatga bog‘liqligi namoyon bo‘lmoqda. Masalan, BAA ayol diplomatlar va rahbarlarni tayinlash bo‘yicha mintaqada eng ilg‘or davlatlardan biri bo‘lib, Reem Al-Hashimi kabi liderlar xalqaro maydonda katta e’tibor qozonmoqda. BAA hukumati gender tengligini qo‘llab-quvvatlovchi maxsus dasturlar va qonunchilik asosida ayollarning siyosiy ishtirokini kengaytirmoqda.

Saudiya Arabiston esa uzoq vaqt davomida gender tengligi masalasida konservativ yondashuvga ega bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda bu borada muayyan yutuqlarga erishmoqda. 2019-yilda Saudiya Arabiston tarixida ilk bor ayol diplomat – Rima Bint Bandar Al Saud AQShga elchi sifatida tayinlandi. Ushbu voqeа Saudiya Arabiston tashqi siyosatida ayollarning rolini oshirishga bo‘lgan intilish belgisi sifatida qaralmoqda.

Biroq, Quvayt, Bahrayn va Ummon singari davlatlarda ayollarning xalqaro munosabatlardagi yetakchilik roli hali ham cheklangan bo‘lib, bu asosan ijtimoiy va madaniy to‘siqlar bilan bog‘liqdir. Ushbu mamlakatlarda ayollar siyosiy maydonga kirmoqda, biroq ularning diplomatik va xalqaro tashkilotlardagi faolligi nisbatan past darajada qolayotganligini ko‘rib turibmiz.

An’anaviy jamiyatda ayollarning o‘rni. Ko‘rfaz arab davlatlarida ayollar an’anaviy ravishda oilaviy mas’uliyat, uy bekasi roli va onalik vazifalari bilan cheklangan edi. Islom dini va mahalliy qabilaviy tuzumlarning ta’siri ostida shakllangan ijtimoiy tuzilma ayollarning jamoat va siyosiy hayotda faol ishtirok etishini murakkablashtirdi. Biroq, tarixiy nuqtayi nazardan, arab jamiyatlarida ayollar yetakchi sifatida faoliyat yuritgan misollar ham mavjud bo‘lgan, ammo ular asosan cheklangan doirada bo‘lib kelgan.

Iqtisodiy rivojlanishda ayollarning faollahuvi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, neft sanoatining rivojlanishi va globalizatsiya jarayonlari Ko‘rfaz davlatlarining iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘plab davlatlar o‘z iqtisodiyotlarini diversifikatsiya qilishga harakat qila boshladilar, bu esa ayollarning ta’lim olish va mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirdi. Natijada, ayollar davlat idoralarida, biznesda, ta’lim va tibbiyot sohalarida ko‘proq yetakchi lavozimlarni egallay boshladilar.

Huquqiy islohotlar va davlat siyosati. So‘nggi yillarda Ko‘rfaz arab davlatlarida gender tengligini ta’minlash bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan:

Saudiya Arabistonida ayollarga haydovchilik guvohnomasini olish, saylovlarda ishtirok etish huquqi berildi.

*BAA*da gender tengligi bo‘yicha maxsus davlat dasturlari qabul qilindi.

Qatarda ayollar xalqaro diplomatiyada faol ishtirok etmoqda.

Bahraynda parlamentda ayollarning soni ortib bormoqda.

Ushbu islohotlar jamiyatdagи ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga yordam bermoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayollar yetakchilik rolining zamonaviy ko‘rinishlari. Ko‘rfaz davlatlarida ayollarning siyosiy ishtiroki bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Jumladan, BAA, Quvayt va Bahrayn parlamentlarida ayollarning ulushi oshdi. Ba‘zi davlatlarda esa ayollarga saylovlarda qatnashish yoki davlat lavozimlariga tayinlanish bo‘yicha ko‘proq imkoniyatlar yaratildi. Shunga qaramay, ayollar hali ham siyosiy jarayonlarga to‘laqonli qo‘sila olmayapti.

Diplomat rahbar ayollar. Ko‘rfaz davlatlari xalqaro maydonda o‘z nufuzini oshirish uchun gender tengligi borasida muayyan qadamlarni tashhamoqda. Masalan, BAAning Tashqi ishlar vazirligida ayollar yuqori lavozimlarni egallagan, Qatar esa ayollarni xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etishga undamoqda. Bu esa nafaqat gender tengligi, balki mintaqaviy siyosatning global maydondagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Ko‘rfaz davlatlarida ayollarning biznes va iqtisodiyot sohasidagi ishtiroki ham ortib bormoqda. BAA, Saudiya Arabistoni va Qatarda ayollar tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun rag‘batlantiruvchi dasturlar ishlab chiqilgan. Natijada, ayollar bank, axborot texnologiyalari, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida faoliyat yuritayotgan yetakchi shaxslarga aylanmoqda.

To‘siqlar va muammolar. Ayollarning yetakchilik rolini oshirish yo‘lidagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat bo‘lib bormoqda. Masalan:

An’anaviy va diniy qadriyatlar – ayrim jamiyat qatlamlari hali ham ayollarning yetakchilik lavozimlarini egallashini to‘liq qo‘llab-quvvatlamaydi.

Ijtimoiy stereotiplar – ayollarning rahbar sifatida faoliyat yuritishi ijtimoiy bosim va qarama-qarshiliklarga duch kelishi mumkin.

Qonunchilik va huquqiy cheklovlar – ayrim davlatlarda ayollarning huquqlari hali ham to‘liq kafolatlanmagan.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun huquqiy islohotlarni davom ettirish, jamiyatni gender masalalari bo‘yicha xabardor qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish lozimdir deb hisoblaymiz. Tan olish kerakki, ayollarning diplomatiyadagi ishtiroki tarixdan an’anaviy gender

masalasi tufayli cheklangan edi. Bugungi kunda esa, ijobjiy o'zgarish asta-sekin ko'zga tashlanmoqda. So'nggi yillarda ayollar diplomatiya va xalqaro aloqa sohasida faol ishlashga intilyapti.

Xotin-qizlarning diplomatiyadagi murakkab vaziyatlarda tegishli yechim topishi, jumladan, bir tomondan o'z mamlakati yoki jamoasidan vakil bo'lish, ikkinchi tomondan genderga asoslangan to'siqqlarga qarshi turish o'rtasidagi muvozanatni topishi o'ta muhim omil hisoblanadi. Qolaversa, xilma-xillikning o'ziga xos ahamiyati, muslima ayollarning sohadagi imkoniyat va resursdan teng ulushga ega bo'lishini ta'minlash ham dolzarb hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tashqi siyosat sohasida ayollarning rolini oshirishda institutsional ko'mak hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Ma'lumot o'rnida aytishimiz mumkinki, 1945-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi ishlab chiqilgan va imzolangandan buyon ayollar global boshqaruvda muhim rol o'ynab kelmoqda. Ularning yetakchilik uslubi, tajribasi va ustuvor yo'naliishlari hal etilayotgan masala ko'lamini kengaytirib, natija sifatini yaxshilaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar kabinetda yoki parlamentda ishlab, oddiy odamlarga, atrof-muhitni muhofaza qilishga va ijtimoiy birdamlikka yo'naltirilgan qonun, qarorlar qabul qiladi. Tinchlik sharoitida va siyosiy jarayonda ayollar faolligini oshirish chora-tadbirlarini ilgari surish xotin-qizlarning tubdan kamsitilishiga qarshi, mohiyatan, tenglikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

BMTga a'zo 193 davlatdan atigi 34 tasida ayollar davlat yoki hukumat boshlig'i sifatida saylangan. Ko'pgina mamlakatlarda, erishilgan muayyan yutuqlarga qaramay, turli darajadagi siyosiy lavozimlarda ayollarning global ulushi hamon past natijani ko'rsatmoqda. Masalan: vazirlar 21, milliy parlament a'zolari 26, mahalliy hukumatga saylanganlar 34 foizni tashkil etadi. So'nggi hisobotlarga ko'ra, taraqqiyotning hozirgi sur'atida parlamentda teng vakillikka 2062-yilgacha erishib bo'lmaydi.

Aslida diplomatiya tarixi qadim zamonga borib taqaladi. Asrlar davomida ayollar diplomatiyada muhim rol o'ynagan, ammo ularning hissasi ko'pincha e'tibordan chetda qolgan. Onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz qiyin to'siqlarni yengib o'tib, diplomatiya sohasida ham jiddiy muvaffaqiyatlarga erishayotganini tan olish vaqtি keldi deb o'ylaymiz. Bugungi kungacha, 143 mamlakatda erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikni konstitutsiya darajasida kafolatlagan, 52 davlat hali bu muhim majburiyatni zimmasiga olmagan. Asosiy qaror qabul qilishda ayollar vakilligini oshirish ko'p tomonlama kun tartibini shakllantirish va amalga oshirishga yordam beradi. 1992-yildan 2019-yilgacha ayollar dunyo bo'ylab tinchlik jarayoni muzokarachilarining 13 vositachilarining, 6 imzolovchilarining hamda 6 foizini tashkil qilgan. Gender tenglik, barcha ayollar va qizlar huquqi va imkoniyatini kengaytirish uchun barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga ham hissa qo'shami. 2030-yilgi kun tartibini amalga oshirishda

gender nuqtayi nazarini tizimli ravishda integratsiya qilish juda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, qaror qabul qilishda ayollarning teng ishtirokini taqozo etadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ayollarning xalqaro munosabatlardagi roli, ayniqsa Ko‘rfaz arab davlatlarida, so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlarga yuz tutdi. Ushbu davlatlarda ayollar, avvalo, ijtimoiy va siyosiy jihatdan an’anaviy roldan asta-sekin o‘tib, yangi imkoniyatlar va pozitsiyalarini egallashni boshladи. Biroq, bu jarayon har bir davlatda o‘ziga xos tarzda rivojlanmoqda. Ko‘rfaz davlatlarida ayollar o‘zlarini nafaqat oilaviy va mahalliy, balki xalqaro arenada ham ilgari surishmoqda. Shuningdek, Ko‘rfazning ayrim davlatlarida ayollar davlat boshqaruvida ishtirok etish, xalqaro munosabatlar va diplomatiya sohalarida o‘zlarining liderlik pozitsiyalarini mustahkamlashda katta tajriba mifikini yaratishmoqda.

Ko‘rfaz davlatlari, ayniqsa Saudiya Arabiston, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Qatar va Bahrayn, ayollarni siyosat va biznesda faollashishini ta’minalashga intilmoqda. Saudiya Arabistonida ayollarning saylovlardan ishtirok etishi, ishchi kuchiga qo‘shilishining oshishi va biznesda ishtirok etishining kengayishi Ko‘rfazda ayollarni siyosat va iqtisodiyotga jalb qilishda katta o‘zgarishlarni aks ettirmoqda.

Ayollar Ko‘rfaz davlatlarida hukumatning yuqori lavozimlariga erishish yo‘lida turli to‘siqlarni yengishmoqda. BAA va Qatar kabi davlatlar, ayollarga siyosiy lavozimlarni egallash uchun qulay sharoit yaratmoqda. Bu, albatta, boshqa ko‘rfaz davlatlari uchun ilhom manbai bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz.

Ko‘rfaz davlatlarining xalqaro diplomatiyada ayollarning ishtiroki sezilarli darajada oshmoqqadir. Diplomatik missiyalarini amalga oshirishda ayol delegatsiyalarining asosiy ishtirokchilari bo‘lishi, yangi siyosiy tashabbuslar va xalqaro aloqalar yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ayollar xalqaro tashkilotlarda, jumladan BMTda va boshqa mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etmoqda. Ayollar diplomatiya va xalqaro munosabatlar sohasidagi o‘zgarishlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ko‘rfazda ayollarning ta’lim olish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilanganligini ko‘rshimiz mumkin. Bu o‘zgarish, ayniqsa, ayollarning yuqori lavozimlarga erishishlari va xalqaro maydonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayollarni o‘qitish va ularning professional malakasini oshirish, ayniqsa, biznes, iqtisodiyot, siyosat va diplomatiya sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo‘lmoqda.

Shunday qilib, Ko‘rfaz arab davlatlarida ayollarning xalqaro munosabatlardagi liderlik roli sezilarli darajada o‘sdi va bu jarayon davom etmoqda. Ayollar, o‘zlarining siyosiy, iqtisodiy va diplomatik faoliyatlarini orqali nafaqat o‘z mamlakatlarida, balki global maydonda ham ta’sirli rol o‘ynashmoqda. Kelajakda bu davlatlar ayollarni siyosatga, diplomatiyaga va xalqaro

munosabatlarga yanada faolroq jalb qilishni davom ettirsa, ularning xalqaro maydondagi o‘rni yanada mustahkamlanadi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R.Sh.Bozorova. “Islomda ayollar o‘rni va munosabat”. Journal of theory, mathematics and physics, 3(1), 2024. – B. 136–143.
2. Merissa Khurma, Cassandra Pagan, Alexander Farley, James Alex Horner. “Ready to Lead: Understanding Women’s Public Leadership in the Middle East and North Africa”. Wilson Center, 2020. – 68 p.
3. Beverly Dawn Metcalfe, Mark Saunders, Nabil Sultan, David Weir. “Women’s Empowerment in the Gulf States: Shaping Economies, Politics and Culture”. Conference: EURAM, Liverpool (UK), 2009. – P. 1-17.
4. Al-Mughni, H. “Women’s Empowerment in the Gulf Cooperation Council Countries.” Middle Eastern Studies, 46(3), 2010. – P. 349-364.
5. Joseph, S. “Gender and Citizenship in the Arab Gulf States.” International Journal of Middle East Studies, 47(2), 2015. – P. 221-239.
6. Jassem Mohamed al-Budaiwi. “GCC women’s role in diplomacy wins praise”, 2023. Url: <https://www.gulf-times.com/article/663578/qatar/gcc-womens-role-in-diplomacy-wins-praise>.
7. Hino Rabboniy Khar. “Diplomatiyada ayollarning o‘rni juda muhim”. 29.04.2024. Url: https://uza.uz/oz/posts/xalqaro-diplomatiyada-ayollarning-orni-qanday_593239